

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
ЖИЗЗАХ ДАВЛАТ ПЕДАГОГИКА ИНСТИТУТИ**

**International scientific-practical conference
XXI CENTURY SKILLS IN LANGUAGE
TEACHING AND LEARNING
April 24, 2020**

**ТИЛНИ ЎҚИТИШ ВА ЎРГАНИШДА XXI АСР КЎНИКМАЛАРИ
Халқаро илмий-амалий конференция
2020 йил, 24 Апрель**

**Международная научно-практическая конференция
НАВЫКИ XXI ВЕКА В ПРЕПОДАВАНИИ И ИЗУЧЕНИИ ЯЗЫКА
24 Апреля, 2020 г**

ЖИЗЗАХ - 2020

G. O'ktamovna, BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI FANI O'QITISHDA KOMPETENSIYALARNI QO'LLASHNING DOLZARBLIGI.	482
O'sarova N., Ikromova F., LINGUISTIC CORRELATION IN LEARNING THE LANGUAGE	488
S. Sodikova, S.Rapiqjonova, STORIES AS EFFECTIVE TOOLS IN TEACHING ENGLISH TO YOUNG LEARNERS .	490
Sattarova D., Suyundiqova Yu., MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA O'ZBEK TILINI O'RGATISHNING AHAMIYATI	493
S.T.Sattorova, X.R.Sattorov TA'LIMNI INDIVIDUALLASHTIRISHDA PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK ASOSLARI	496
Yugay E.V., Shimchuk A. O., FORMULATING RESEARCH QUESTION IN THE CLASSROOM	498
Аскарлова Ш., ПРОБЛЕМА ФОРМИРОВАНИЯ БИЛИНГВИЗМА В ПОЛИКУЛЬТУРНОМ ПРОСТРАНСТВЕ	500
Булычёва М.Ф., К ВОПРОСУ О ПУБЛИЧНЫХ ВЫСТУПЛЕНИЯХ НА КОНФЕРЕНЦИЯХ И СЕМИНАРАХ	503
Комилова Г., ЧЕТ ТИЛ ЎҚИТИШ МЕТОДИКАСИНING ОНА ТИЛИ ФАНИ БИЛАН АЛОҚАСИ	507
Маматова Г.А., ЎҚИШ ДАРСЛАРИНИ МЕТОДИК ЖИХАТДАН ТАЪМИНЛАШ ЙЎЛЛАРИ	509
Гизатулина О., ИНТЕГРИРОВАННЫЕ ПРОЕКТЫ КАК МЕТОД ФОРМИРОВАНИЯ КЛЮЧЕВЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ ШКОЛЬНИКОВ	513
Жабборова Д., Жалилов Ж., ФОРМИРОВАНИЕ КРЕАТИВНОСТИ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА	518
Караева Х.М., ГАПИРИШГА ЎРГАТИШ ЖАРАЁНИДА ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ.	521
Махкамов Т., ОЛИЙ ЎҚУВ ЮРТИ ТАЛАБАЛАРИДА ИНГЛИЗ ТИЛИДА НУТҚ ФАОЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ	524
Насриддинова Г.С., ИНГЛИЗ ТИЛИ ДАРСЛАРИДА ИЛФОР ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИ ЎҚУВ-ТАРБИЯ ЖАРАЁНИГА ЖОРИЙ ҚИЛИШ	527
Рафиев Ф., Пак Д., ФОРМИРОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ СРЕДСТВАМИ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА	528
Turg'unova N., ONA TILI DARSLARIDA NUTQIY MALAKANI SHAKLLANTIRUVCHI MASHQLAR	530
Usmonov M., Erkinova G., TA'LIMDA ZAMONAVIY AXBOROT TECHNOLOGIYALARI – YANGI IMKONIYATLAR	533
У.Жабборов. THE IMPORTANCE OF FOREIGN EXPERIENCE IN PROFESSIONAL TRAINING OF FUTURE ENGLISH LANGUAGE TEACHERS	535
О.Н.Мамасолиева. TIL TA'LIMI JARAYONIDA TALABALARNING IJTIMOY-MADANIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH	537
Т.Э.Эргашев. АХБОРОТЛАШГАН ЖАМИЯТДА ИНГЛИЗ ТИЛИНИНГ ЎРНИ	542

образования: материалы X Российско-Американской науч.-практ. конф., 14–16 мая 2007 г. – СПб: Издво РГПУ им. А.И. Герцена, 2007. – С. 105–109.

2. Зимняя И.А. Ключевые компетенции – новая парадигма результата современного образования // Интернет-журнал «Эйдос», 2006. – 5 мая. Ътти://эйдос/ру. 23-25 стр.

ONA TILI DARSLARIDA NUTQIY MALAKANI SHAKLLANTIRUVCHI MASHQLAR

Turg'unova Nilufar Muhiddin qizi

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU

O'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi I kurs magistranti

Bola o'zining ilk tasavvurlarini, ichki kechinmalarini til vositasida yuzaga chiqaradi. U o'zini va o'zgalarni, atrofdagi narsa-hodisalarni til yordamida taniydi, bilib oladi. Maktabda til o'qitish – uni o'zlashtirishning tabiiy davomi bo'lib, u bolalarning maktabga kelguncha hosil qilgan nutq tajribasi asosida tashkil etiladi.

Ona tili predmeti o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning fikrini yuzaga chiqarish shakllari (og'zaki va yozma nutq), vositalari (tovush, harf, so'z, gap, matn), usullarini (aytish va eshitish, gapirish va tinglash, o'qish va yozish) egallashlari bilan qo'shib olib borishning yetakchi omilidir [1;]. Shunday ekan, ona tili ta'limiga alohida e'tibor qaratish, ona tili darslarining sifatini yanada oshirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish, til ta'limida foydalanish mumkin bo'lgan yangi, zamonaviy o'qitish usullarini ta'limga tatbiq etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Bilamizki, 10–11-sinf o'quvchilari uchun tanlangan o'quv materiallarining sifati, ilmiyligi, dolzarbligi alohida e'tibor talab qiladi. Xususan, mazkur sinflarda ona tili darslarini tashkil etishda ham o'qituvchiga ulkan mas'uliyat yuklanadi.

Umumta'lim maktablarining 11-sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan ona tili darsligi N.Mahmudov, Y.Odilov, G.Ziyodullayevalar hammuallifligida yaratilgan bo'lib, mazkur darslikda asosan 11-sinf o'quvchilarining nutq madaniyati, og'zaki nutqini o'stirish bilan bog'liq jihatlariga e'tibor qaratilgan.

Darslikning mundarijasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, u o'zida quyidagi mazmundagi mavzularni qamrab olgan: O'zbek tili va uning taraqqiyoti, nutqning xususiyatlari (to'g'riligi, aniqligi, mantiqiyliigi, sofligi, boyligi, jo'yaliligi, ifodaliligi), nutq texnikasi, ish qog'ozlari bilan ishlash va b.

Mavzular izchillik va uzviylik prinsipiga asosan joylashtirilgan bo'lib, ular soddadan murakkabga tomon rivojlanib boradi.

Ammo barcha mavzularni ham o'quvchining yoshi va bilim darajasiga mos deb hisoblab bo'lmaydi. Butun o'quv yili davomida faqat nutqning xususiyatlarini o'rganish o'quvchini zeriktiradi, chunki mavzular bir-biriga juda o'xshash.

Bundan tashqari, bizdagi barcha ona tili darsliklariga xos bo'lgan umumiy xususiyat deyarli barcha o'rinlarda badiiy matnga tayanilganligidir. 11-sinf ona tili darsligi ham bundan mustasno emas. Mavzuni mustahkamlash uchun berilgan mashq va topshiriqlarning asosiy qismida badiiy asarlardan parchalar keltirilgan. To'g'ri, ona tili darsini adabiyotdan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Lekin biz har kuni ham hayotimizda faqat badiiy uslubdagi matn bilan ishlamaymiz. Darsliklarni iloji boricha hayot bilan, amaliyot bilan yaqinlashtirish kerak. Ona tili darsliklariga badiiy uslubdagi matn bilan bir qatorda ilmiy, rasmiy, publitsistik, so'zlashuv uslubidagi matnlarni ham kiritilsa, o'quvchilarning til, nutqqa oid tasavvurlari yanada kengayar edi. Masalan, ona tili darslarida o'quvchilarga turli ko'rinishdagi matnlar: e'lonlar, reklamalar, internet xabarlar, so'zlashuvdagi turli dialoglardan namunalar berish mumkin. Tanlangan matnlarning rang-barangligi va bevosita o'quvchining o'z hayotiga, dunyoqarashiga yaqinligi o'quvchining darsga bo'lgan qiziqishi va faolligini oshiradi.

Til ta'limini lingvistik mashqlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ulardan ona tili o'qitishning hamma bo'g'inlarida, o'quv-tarbiya jarayonining barcha bosqichlarida foydalaniladi. Lingvistik mashqlardan til bilimlarini o'rganish, mustahkamlash, takrorlash, tekshirish, umumlashtirish maqsadlarida foydalaniladi. Shuningdek, ular bolalarda orfoepik, orfografik, uslubiy, punktuatsion va shu kabi malakalar hosil qilishning yetakchi omili sanaladi. Binobarin, lingvistik mashqlarning mohiyatini to'liq anglagan, ularning qurilishi xususida bilimlarga ega bo'lgan, tiplarini ajrata biladigan, ularni tizimga keltirish texnologiyasini egallagan o'qituvchigina mashqlardan unumli foydalanadi [1].

11-sinf ona tili darsligidagi mashq va topshiriqlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, darslikdan umumiy hisobda 119 ta mashq va 52 ta topshiriq o'rin olgan. Mashq va topshiriqlar o'quvchilarning nutqiy hamda lingvistik ko'nikma, malakalarini shakllantirishga qaratilgan. Mashq va topshiriqlar berilgan nazariy ma'lumotlarga mos bo'lib, ular o'quvchining ham og'zaki, ham yozma nutqini rivojlantirishga xizmat qiladi hamda o'quvchilarni tanqidiy-tahliliy fikrlashga undaydi. Lekin bugungi kun pedagogi faqatgina darslik bilan cheklanib qolmasdan, mustaqil ravishda o'z ustida tinmay ishlashi, har bir darsga yangilik bilan kirishi darkor. Xususan, darslikdagi an'anaviy mashq va topshiriqlar bilan bir qatorda ona tili darslarida quyidagi ko'rinishdagi amaliy ishlardan foydalanish ham yaxshi samara beradi:

1-topshiriq. "Noto'g'ri fikrni toping".

№	MA'LUMOTLAR	T	Noto
---	-------------	---	------

		o'g'ri	'g'ri
1	Badiiy adabiyotda muayyan maqsad bilan adabiy til me'yorlaridan chekinish mumkin.		
2	Shakldosh yoki paronim so'zlarni farqlamaslik nutqning aniqligiga putur yetkazadi		
3	Sintaktik birliklarning nutqdagi tartibi nutqning mantiqiyligiga ta'sir ko'rsatmaydi		
4	Nutqning sofligi so'zlovchining ma'naviy-ma'rifiy saviyasini ko'rsatib beradi		
5	Nutqning so'zlanayotgan vaziyatga mos kelishi nutqning ifodaliligi sifatini yuzaga keltiradi		

2-topshiriq. Mazkur topshiriqda o'quvchilar uslublarning o'ziga xos janrlarini bir-biridan ajratib tasnif qiladilar. Bu topshiriq o'quvchilarga uslublarning qo'llanilish doirasini yanada yaxshiroq tushunib olishlariga ko'mak beradi.

Quyidagi so'z va so'z birikmalari aralash holda beriladi. O'quvchilar tegishli jadvalga joylaydilar: *Roman, bunyodkorlik ishlari, monografiya, hikoya, tilxat, buyruq, dissertatsiya, bahor nafasi, qissa, maqola, oy yuzli, e'lon, esse, yangiliklar, ko'ngil bog'i, farmoyish, ma'lumotnoma, intervyu, ocherk, chaqiriqlar.*

Ilmiy uslub	Rasmiy uslub	Badiiy uslub	Publitsistik uslub

Shuningdek, o'quvchilarda tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirish maqsadida turli uslubdagi matnlar yozilgan audiolardan foydalanish mumkin. O'quvchilar bu audiolarni eshitish orqali nutqning xususiyatlarini, uslubiy jihatlarini, nutq birliklarining qanday maqsadlarda qo'llanayotganini tahlil qiladilar.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, umumta'lim maktablarida ona tili ta'limi sifatini yanada oshirish, ona tili darslarining jonli, qiziqarli hamda bevosita hayot bilan bog'liq holda o'tilishi ta'minlash alohida ahamiyat kasb etuvchi masalalardan biridir. Ayniqsa, 11-sinf o'quvchilarining og'zaki hamda yozma nutqiy savodxonligini oshirish, ularning o'z fikrlarini to'g'ri, aniq ifodalab bera olishlariga erishish alohida e'tibor talab qiladi. Bu kabi maqsadlarga erishishda umumta'lim maktablari darsliklarini yanada takomillashtirish, o'quvchilarni ona tili faniga qiziqishini oshiradigan, tahliliy fikrlashga undaydigan yangi amaliy topshiriqlar ishlab chiqish va ularni ta'limga tatbiq etish asosiy vazifalardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Roziqov O., Mahmudov M., Adizov B., Hamroyev A. Ona tili didaktikasi. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2005.
2. Mahmudov N., Odilov Y., Ziyodullayeva G. Ona tili. O‘rta ta’lim muassasalarining 11-sinfi va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari o‘quvchilari uchun darslik. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2018.

TA’LIMDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARI – YANGI IMKONIYATLAR

M. Usmonov. Jizzax davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi
G. Erkinova. Jizzax davlat pedagogika instituti talabasi

Oliy ta’lim o‘quv jarayonini tashkil etishda innovatsion texnologiyalarning roli kun sayin ortib bormoqda. Masofaviy texnologiyalardan foydalanish zamonaviy ta’limning imkoniyatlarini yanada kengaytirdi. Bugungi kunda Yer kurrasining istalgan joyidan turib, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) imkoniyatidan foydalangan holda ta’lim olish mumkin. Zero an’anaviy ta’lim o‘z mavqeini saqlab tursa ham, keyingi paytlarda masofaviy o‘qitish texnologiyalari kundan-kun ommaviylashib bormoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda yangi jahon axborot-ta’lim muhitiga integrallashishga yo‘naltirilgan ta’lim tizimi barpo etilmoqda. Bu ta’lim jarayonini tashkil etishda zamonaviy texnik imkoniyatlarga javob beradigan sezilarli o‘zgarishlar bilan kuzatilmoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalarining ta’lim sohasiga kirib kelishi ta’lim usullari va o‘qitish jarayonini yangicha yondashuv asosida tashkil etish shakllarini sifatli ravishda qulaylashtirib, o‘zgartirish imkonini bermoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta’lim tizimini modernizatsiyalashtirish jarayonining eng muhim qismidir. AKT — bu turli texnik va dasturiy qurilmalar bilan axborotga ishlov berish usullaridir. U birinchi navbatda, zarur dasturiy ta’minotga ega bo‘lgan kompyuterlar va ma’lumotlar joylashtirilgan telekommunikatsiya vositalaridir.

1997-yil 29-avgustda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi «Ta’lim to‘g‘risidagi» Qonunining 1-moddasida fuqarolarga ta’lim, tarbiya berish, kasb-hunar o‘rgatishning huquqiy asoslari belgilab berildi hamda har kimning bilim olishdek konstitutsiyaviy huquqini ta’minlashga qaratilganligi ta’kidlandi. Hozirgi davr ta’lim bosqichining yangi talablariga ehtiyoj yuqoriligini ko‘rsatmoqda. Bunda masofaviy ta’lim texnologiyalarini ta’lim jarayonida qo‘llash va uni